



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Ostonokulov Azamat Abdurakimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Mirzhanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich – siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025

Accepted: 30 August 2025

Published: 15 Ceptemper 2025

Article / Original Paper

YOUTH PARTICIPATION IN LAWMAKING IN NEW UZBEKISTAN

Karamanova Benazir

Lecturer, Faculty of Law, Karakalpak State University

Abstract. This article analyzes the formation of the Youth Parliament under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, its areas of activity, and the participation of youth in lawmaking. Emphasizes the practical significance of the Youth Parliament in protecting the rights and interests of youth, involving them in political and legal processes.

Keywords: youth policy, youth parliament, lawmaking, parliamentary oversight, legal awareness, youth rights, legislative initiative, youth representation, rights of orphaned children, orphanage, Oliy Majlis.

YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKİ

Karamanova Benazir

Qoraqalpoq davlat universiteti, yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Yoshlar parlamentining tashkil topishi, faoliyat yo'naliishlari va yoshlarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki tahlil qilinadi. Yoshlar parlamentining yoshlар huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni siyosiy-huquqiy jarayonlarga jalb etishdagi amaliy ahamiyatiga alohida urg'u beradi.

Kalit so'zlar: yoshlар siyosati, yoshlар parlamenti, qonun ijodkorligi, parlament nazorati, huquqiy ong, yoshlarning huquqlari, qonunchilik tashabbusi, yoshlar vakilligi, yetim bolalar huquqlari, mehribonlik uyi, Oliy Majlis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V519Y2025N23>

Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlarini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi.

Konsepsiya ko'ra, 2021-2025-yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha prognozlarni inobatga olgan holda, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish ko'zda tutildi [1].

Yangi O'zbekiston — Yoshlar mamlakati. Aholimizning qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Ilm-fan taraqqiy etgan davrda imkoniyatlardan to'la foydalanayotgan yoshlar o'zlarini har tomonlama yuksaltirish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020-yil 4-sentyabrdan "Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirish jarayonida yoshlar ishtirokini yanada faollashtirish to'g'risida" 440-IV-son qarori [2] qabul qilindi.

Bilimli, zamonaviy texnologiyalarni egallagan, yuksak tafakkurli faol yoshlarimiz — Yangi O'zbekiston buniyodkorlari sifatida qonun ijodkorligida ham o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Bunday imkoniyat, ayniqsa, "Yoshlar parlamenti"ning shakllantirilishi bilan yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Yoshlar parlamenti"ning tashkil etilishi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi Farmoni bilan tasdiqlangan [3] Davlat dasturining 21-bandji ijrosini ta'minlash bilan bog'liq. Davlat dasturida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi huzurida Yoshlar parlamentlarini tashkil etish va ularning tarkiblarini shakllantirish tartibini belgilash nazarda tutilgan edi. Keng muhokamalar va xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, 2020 yil 29 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'rtaida Qonunchilik palatasi huzurida "Yoshlar parlamenti"ni tashkil etish bo'yicha bitim imzolandi [4]. Mazkur bitim asosida "Yoshlar parlamenti" respublika komissiyasi, Nizomi, Reglamenti va tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

Parlamentning tuzilishi va faoliyat shakli jihatidan Qonunchilik palatasiga muvofiq tarzda shakllantirilgan. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning parlament faoliyatini yaqindan bilishiga xizmat qiladi. Ushbu parlamentning Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda tuzilgani esa qonun ijodkorligi jarayoniga ko'proq yoshlarni jalg qilish imkonini beradi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlama aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalg etish hamda qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar o'rtaida keng targ'ib qilish orqali ularning parlament hayotidagi ishtirokini oshirish "Yoshlar parlamenti"ning asosiy maqsadi etib belgilandi.

Yoshlarning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalg etish, yosh avlodning siyosiy faolligini oshirishda Yoshlar parlamenti muhim institutga aylanmoqda.

Ta'kidlash joizki, Yoshlar parlamentining har bir a'zosi o'zi yashaydigan hudud yoshlarining, muammolarini o'rganib, sabablarini aniqlab, yoshlar o'rtaida muhokama qilish orqali uni bartaraf etish choralarini ko'rmoqda. Qolaversa, qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etib, zamondoshlarining xohish-istiklarini qonunchilikka singdirish, ularning takliflarini parlamentga olib chiqishga intilmoqda.

"Yoshlar parlamenti"ga saylovni tashkil etish va o'tkazish uchun Respublika komissiyasi tomonidan saylovga kamida o'n besh kun qolganida O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha tuman (shahar) larda tuman (shahar) komissiyasi tuziladi.

"Yoshlar parlamenti"ga 18-30 yoshdagi O'zbekiston fuqarosi 2 yil muddatga saylanadi (muomalaga layoqatsizlar, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotganlar bundan mustasno). "Yoshlar parlamenti"ga a'zolarni saylash uchun hududiy komissiyalar tashkil etiladi. Komissiya 2 bosqichda saylov jarayonlarini tashkil etadi.

Birinchi bosqichda nomzodlar o'z saylovoldi dasturi taqdimoti bilan tuman (shahar) komissiyasida ishtirok etadi.

Birinchi bosqich yakuni bo'yicha komissiya 5 nafar nomzodni (har bir siyosiy partiya bittadan) yashirin ovoz berish yo'li bilan saylaydi.

Ikkinci bosqichda nomzodlar saylovoldi dasturi taqdimoti bilan tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashida ishtirok etadi. Tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashi 1 nafar nomzodni yashirin ovoz berish yo'li bilan saylaydi.

2025-yili 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 574-V-son qarori qabul qilindi [5]. Qarorda o'tgan davr ichida Yoshlar parlamenti yoshlarning siyosiy-huquqiy bilimlari va ko'nikmalarini yuksaltirishga, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalg etishga, qonunlarni yoshlar orasida targ'ib qilish orqali ularning jamiyat hayotiga daxldorligini kuchaytirishga, yosh avlodning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan muhim institut sifatida shakllanganligi atab o'tildi.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalari yuzasidan Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan ko'plab takliflar tayyorlandi. 2023-2024-yillarda yoshlarning qonun ijodkorligining barcha bosqichlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan 347 ta seminar, davra suhbati va konferensiya o'tkazilgan.

Yangi O'zbekistonning eng faol yoshlari Yoshlar parlamenti a'zolari sifatida o'zlariga qo'yilgan vazifalarni astoydil bajarib, tashabbus ko'rsatib qator mas'uliyatlari lavozimlarga munosib ko'rildi. Masalan 1 nafar yosh O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati bo'lgan, 6 nafari esa xalq deputatlari viloyat va tuman (shahar) Kengashining deputati bo'lgan, 9 nafar yosh respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridagi har xil lavozimlarda ish boshlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti bir yuz ellik a'zodan iborat. Nizomiga ko'ra Yoshlar parlamenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining vakolat muddati tugagunga qadar, biroq ikki yarim yildan ko'p bo'lman muddatga o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti to'g'risidagi nizomning 2-bobining 8-bandida Yoshlar parlamentining vazifalari ko'rsatilgan:

- yoshlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash;
- Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil tadbirlarini amalga oshirishda ko'maklashish;
- yoshlarning parlament faoliyati va qonun ijodkorligining barcha bosqichlaridan xabardorligini oshirish;
- yoshlar ishtirokida dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash;
- qonun ijodkorligi masalalari, shuningdek, qonunchilik texnikasi, qonun loyihalarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalari bo'yicha amaliy muhokamalarni tashkil etish;
- yoshlarning siyosiy bilimlarini oshirish, ularda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
- yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirishda ko'maklashish [6].

Yoshlar parlamenti tarkibini shakllantirish jarayoni amaldagi Yoshlar parlamentining vakolat muddati tugashidan kamida ikki oy oldin Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya

tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Bunda Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tomonidan Yoshlar parlamenti tarkibini shakllantirish jarayoniga O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi kabi yoshlar siyosatiga mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlari jalb etilishi mumkin.

2025-yil 4-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" QQ-59-V-son qarori qabul qilindi [7].

Yoshlar parlamenti a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan tashabbuskor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga, keng dunyoqarash va chuqur bilim hamda liderlik salohiyatiga ega 18 – 30 yosh bo'lgan fuqarolar orasidan gender tenglik ta'minlangan va jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni ham jalb qilgan holda jami 100 nafar etib shakllantiriladi. Bunda xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga saylangan yoshlar vakillaridan har bir hududdan teng miqdorda 6 nafardan jami 84 nafar hamda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tavsiyasiga ko'ra 10 nafar hamda Senatning Yoshlar, xotinqizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra 6 nafar yoshlar Senat Kengashi qarori bilan Yoshlar parlamenti a'zoligiga tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari "ustoz-shogird" an'anasi asosida senatorlarga hamda hamkorlik olib borish uchun vazirlik va idoralarga biriktiriladi.

O'tgan davr mobaynida olib borilgan ishlardan misol keltirsak, 2023-yili Senat Raisi boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida bo'lgan Yoshlar parlamenti a'zolari Belarus Milliy majlisi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi va hamkorlik memorandumini imzoladi.

Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning mamlakatimiz hududlari, jumladan, Samarqand viloyatidagi ijro holati o'rganildi.

Vazirliklar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, yoshlarga qaratilgan amaliy loyihalarni kengaytirish orqali ular bilan yanada ko'proq ishslash, xalqaro aloqalar o'rnatish, joylardagi muammolarni hal etishda amaliy yordam ko'rsatish va bunda chekka hududlardagi yoshlarni qamrab olish maqsad qilingan.

2025-yilning 23-30-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining yangi tarkibi uchun navbatdagi saylovlarining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Yoshlar parlamentiga saylovlar uch bosqichda bo'lib o'tdi. Ushbu qaror asosida siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizomlari tasdiqlandi.

20 mart — 1 aprel kunlari siyosiy partiyalarda Yoshlar parlamentiga saylovlarining birinchi bosqichi barcha tuman va shaharlarda bo'lib o'tdi. Ushbu bosqichda respublika bo'yicha jami 9 ming 531 ta ariza kelib tushgan. Tuman (shahar)lik saralash bosqichi hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, jami 2 ming 493 nafar ishtirokchi saylovning ikkinchi — hududiy

bosqichida qatnashdi. Hududiy bosqichlardan esa, jami 530 nafar ishtirokchi saylovning uchinchi — siyosiy partiyalar tomonidan respublika bosqichida qatnashdi.

Respublika bosqichi yakuniga ko'ra, tavsiya etilgan 150 nafar nomzod ro'yxati Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasiga taqdim etildi. Yoshlar parlamenti a'zolari siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasida egallagan deputatlik o'rinaliga mutanosib ravishda quyidagi o'rnlarga ega bo'ldi: 64 nafari O'zLiDeP, 29 nafari "Milliy tiklanish," 21 nafari "Adolat" SDP, 20 nafari XDP, 1 nafari Ekopartiyaga to'g'ri keladi.

Inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda imkoniyatlar tengligini ta'minlash, ayniqsa, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'rtasida huquqiy xabardorlikni oshirish, ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Shu maqsadda Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining huquq sohasiga bo'lgan qiziqishi va bilimlarini oshirishga qaratilgan loyiha ikki bosqichdan iborat ushbu viktorinaga Toshkent shahrida joylashgan Mehribonlik uylarining 100 ga yaqin tarbiyalanuvchisi qamrab olindi. 22 va 30-sonli Mehribonlik uylarining o'zbek va rus tillarida ta'lim oladigan yuqori sinf o'quvchilari viktorinaning 1-bosqichida ishtirok etdi. Ombudsman viktorinasining yakuniy bosqichiga testlardan eng yuqori ball to'plagan 10 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Viktorina ishtirokchilarining bilimi ushbu loyiha tashabbuskorlari, senator va deputatlar hamda Bolalar ombudsmani tomonidan baholandi. Bu misol mamlakatimizda har bitta yoshga davlat siyosati darajasida e'tiborni ko'rsatadi. O'z navbatida yoshlarimiz Vatan ravnaqiga ilmu-salohiyati, sadoqati bilan xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5234746>
2. <https://www.lex.uz/docs/5188331>
3. <https://lex.uz/docs/-4751561>
4. <https://strategy.uz/index.php?news=1071&lang=uz>
5. <https://lex.uz/en/docs/-7453953>
6. https://old.parliament.gov.uz/media/post_attachments/Yoshlar_parlementi_togrisidagi_nizom.pdf
7. <https://lex.uz/uz/docs/7394277>
8. "Еркин Қарақалпақстан". 10-февраль, 2024-жыл. - №17. 156 (21039)
9. Жаслар парламентиниң жаңа курамы сайланды // «Еркин Қарақалпақстан». 17-май, 2025-жыл. - №60 (21238).
10. Омбудсман викторинасынын жеңимпазлары анықланды. <https://kknews.uz/kk/246313.html>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).